



Received: April 5, 2023

Accepted: June 15, 2023

Available online: June 25, 2023

## Zulfiya Pulatova

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya  
akademiyasi  
Toshkent, O'zbekiston

## Barnoxon Samatova

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mechanizatsiyalash muhandislari instituti"  
Milliy tadqiqot universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)  
Toshkent, O'zbekiston

## YOZUV MALAKASINI BAHOLASH MEZONLARI BO'YICHA IZLANISHLAR TAHLILI (yuridik ta'lif yo'nalishi talabalari misolida)

### АННОТАЦИЯ

Davlat va jamiyat hayotida globallashuv axborot davriga mos yurist kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bugun har qachongidan yuqori. Buning asosiy sababi, yuristlarning xorijiy axborotlar bilan doimiy tanishib borishi, chet ellik mijozlar bilan ishlash ko'nikmalari zarurligi, xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsata olish layoqatiga ega bo'lishga intilishlari va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Kasbiy faoliyatimizdan kelib chiqqan holda yondashadigan bo'lsak, insoniyat hayotini huquqiy tartibga solish, vujudga keladigan fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va kasbiy muammolarni hal qilish, ularga yechim topish bilan bog'liq bo'lgan soha doimiy takomillashib borishi sharoitida turli xil yuridik xizmatlarni ko'rsatish, mijozlarning huquqiy manfaatlарини himoya qilish,adolatli huquqiy jarayonlarni ta'minlash singari omillar dolzarblik kasb etmoqda.

Zamonaviy yuristlar oldida turgan eng muhim masalalar sifatida bu doimiy qonunchilikdagi o'zgarishlarning sodir bo'lishi, sohaga ilg'or texnologiyalarning kirib kelishi va xorijiy amaliyotning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan bog'liq yangiliklarga moslashishdir. Bu

## Zulfiya Pulatova

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),  
Banking and Finance Academy of  
the Republic of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: zulfiya-pulatova79@mail.ru

## Barnoxon Samatova

Associate Professor, Doctor of Philosophy  
in Pedagogical Sciences (PhD),  
"Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural  
Mechanization Engineers" National  
Research University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: sam.barno.esl@gmail.com

## ON NEW APPROACHES TO WRITING SKILLS ASSESSMENT CRITERIA (law students)

### ANNOTATSIYA

In the life of the state and society nowadays the need for professional personnel of lawyers corresponding to the growing information in the world is higher than ever today. The main reason for this is determined by the factors of constant familiarization of lawyers with foreign information, the need for skills in working with foreign clients, the desire to have the ability to operate internationally, etc.

Based on our professional activity, such factors as the legal regulation of human life, the solution of emerging civil, criminal, administrative and professional problems, the provision of various legal services, the protection of the legal interests of customers, the provision of fair legal processes in the context of constant improvement and complication of the sphere associated with finding solutions are of the crucial need.

As the most important issue facing modern lawyers is an adaptation to innovations related to the occurrence of constant legislative changes, the introduction of modern technologies into the industry and the gradual introduction of foreign practices. This requires constant development of lawyers, depending on the requirements of the time. The solution to this can be found

esa yuristlardan doimiy rivojlanishni talab qiladi. Buning yechimi hozirgi vaqtida oliv ta'lim tizimi va uning darajalarga (bakalavr, magistr, ikkinchi oliv ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash va hokazo) ajratilganligi va ushbu bosqichlarda yuristlarning nafaqat professional tayyorgarligi, balki til o'rganish darajalari ham alohida e'tiborga olinganligidir. Bundan tashqari, boshqa fanlarning nisbatan qisqartirilishi va mutaxassislik hamda xorijiy tillar bo'yicha dars soatlarining oshirilishi, kredit-modul tiziminining joriy qilinishi kabi o'zgarishlar ham yuridik yo'nalish talabalarining ingliz tilini mukammal o'zlashtirishlarida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot jarayonida talabaning har bir modul bo'yicha o'zlashtirish darajasi ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashning reyting tizimi orqali amalga oshirilishi aniqlandi. Talabalarning ingliz tilida yozuv ko'nikmasini baholash, nazorat savollarining sifati, ularning o'tilgan mavzuga mos yoki mos emasligi, tilni o'zlashtirish darajasi va mustaqil ravishda belgilangan vazifalarni qay tarzda bajarganliklari borasidagi fikrlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** professional bilim, baholash ko'nikmalar, joriy va oraliq nazorat, modul, mezon, nazorat savollari, respondent, nazorat turlari, test.

## KIRISH

Olyi ta'lim tizimida ingliz tili fani o'qituvchilarida talabalar bilimini baholash bilan bog'liq vaziyatlarni istiqbolilik va oliv maktab ilmiy-pedagogik kadrlarni yetishtirish jarayonida vujudga keladigan salbiy tendensiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilish jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bugungi kunga kelib, vaziyat birmuncha yaxshilandi, ya'ni o'qituvchilarning moddiy manfaatdorligi oshirilib, oylik maoshlari ko'paydi. Bunga qadar esa, ilmiy faoliyatga mos, yosh, iqtidorli bitiruvchilarning ko'pchiligi oliv ta'limda ishlashni afzal ko'rmas edi. Ularning oliv ta'lim tizimidan ketishi, oliv ta'limni va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish darajasining pastligi singari sabablar ta'lim va ilmiy faoliyat tizimida ilmiy-metodik ishlar darajasining pasayishiga olib keldi. Bunday holatlar esa o'z-o'zidan oliv ta'lim tizimida ishlaydigan pedagog-kadrlar mahoratining rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Olyi ta'lim tizimida ishlaydigan o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi professionallikni, o'z-o'zini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish layoqatini, metodik va lektorlik mahoratini oshirib borishini taqozo etadi. Bu jarayonda tajriba muhim o'rin tutishi bilan bir qatorda, kreativlik ham uning asosiy komponenti sifatida maydonga chiqadi. Aynan tajriba pedagogik kompetensiyaning, baholash mahoratining eng maqbul va ishonchli omili hisoblanadi. Shu bilan birga, bugungi kunda o'qituvchilar

currently in the system of higher education and its allocation to degrees (bachelor's, master's, second higher education, advanced training, retraining and etc.) and the fact that at these stages not only professional training of lawyers, but also levels of language learning are taken into account. In addition, such changes as the relative reduction of other subjects and the increase in hours in specialties and foreign languages, the introduction of a credit-module system also serve as an important factor in the mastery of foreign languages, including English by law students.

In the course of the study, it was determined that the level of a progress of a student in each module is carried out according to the rating system for assessing the knowledge, qualifications and skills of students. The assessment of students' writing skills in the English language, the quality of control questions, whether they are adequate or not for the topic covered, their attitude to the mastery of the English language and the extent to which they have mastered the tasks set, their independent implementation have been studied.

**Key words:** professional knowledge and skills, assessment types (continuous, mid-term, final tests), module, criteria, assessment questions, respondent.

va pedagoglar malakasini oshirish ham zarur.

O'qituvchilarning baholash mahorati darajalarini shakllantirish, avvalo, ularning qanday real ta'lif imkoniyatlariga (ularning kuchli va zaif tomonlarini, notiqlik va bilim darajalarini, shaxsiy sifatlari va hokazo) ega ekanligi bilan bog'liq [Giraldo, 2014]. Ular kasbiy faoliyatining katta qismi guruhni baholash bilan bog'liq faoliyatga bag'ishlangan. Optimal baholash amaliyoti ta'lif oluvchining natijalariga turlicha ta'sir qilishi mumkin [Coombe, 2013]. Shunday qilib, o'qituvchilarning baholash qobiliyatiga e'tiborli bo'lishi kerak. Ular bu jarayonga turlicha yondashadilar. Misol uchun, Justin Raudys o'qituvchilarning baholash mahoratini 4 ta asosiy darajaga bo'ldi:

1. The Value-Added Model (VAM) – Qo'shilgan Qiymat Modeli. Talabalarning avvalgi yillardagi test ballari, shuningdek, ularning bilimlari haqidagi ma'lumotlar olinib, keyingi yilda ularning test ballari qanday bo'lishi model orqali taxmin qilinadi.

2. Teacher observations – O'qituvchining dars mashg'ulotlarini kuzatishi. Ta'lif beruvchi mashg'ulotlarini muntazam kuzatish sinab ko'rilgan va sinovdan o'tgan usuldir. O'qituvchi guruhni qanday boshqarayotganini, guruhda qanday muhit yaratganini, guruh uchun tayyorlangan material tayyorgarligi va ularning vazifalarini qanday bajarishlarini xolisona baholashga ishonch hosil qilish demakdir. Mukammal ishlab chiqilgan baholash rubrikasi izchil, ishonchli natijalarga olib keladi. Talabalar bilan o'qituvchi o'rtasida rapport (o'zaro bog'liqlik) qo'llanilganligi, har ikki tomonning body language va o'qituvchi-talaba munosabatida yaqqol namoyon bo'ldi.

3. The Framework Model – Chegaralangan model. Ushbu model Charlotte Danielson tomonidan 1996 yilda ishlab chiqilgan. Bu model to'rt xil domenga asoslangan. Ular o'qituvchilarning to'rtta muhim mas'uliyatini qamrab oladi: rejalshtirish, tayyorlash, sinfxona muhiti, ko'rsatma.

4. The Marzano Focused Teacher Evaluation Model – Marzanoga qaratilgan baholash modeli. Ushbu model Robert Marzano va Beverli Carbaughlar tomonidan ishlab chiqilgan. Buning natijasi o'laroq, o'qituvchilarning professionallik darajalari o'sdi, bundan tashqari, ta'lif oluvchilarni keng jalb qilishga erishildi. O'quv maqsadlarini rejalshtirish va yaratishga ko'proq e'tibor berildi [<https://www.prodigygame.com/main-en/blog/teacher-evaluation/>]. Misol uchun, rossiyalik olim Eval'd Fridrixovich Zeyerning fikriga ko'ra, o'qituvchilarning baholash mahoratini oshirish va ularning professional layoqatliligi asosiy strukturaviy komponentiga quyidagilar kiradi: ijtimoiy-huquqiy layoqatlilik (professional axloq me'yorlariga muvofiq huquqiy maydon doirasidagi professional faoliyatni amalga oshirishning ko'nikma va bilim); maxsus layoqatlilik (aniq bir turdag'i faoliyatni mustaqil tarzda amalga oshirishga tayyorgarlik, amaliy professional vazifalarni yechish, o'zining mehnati natijasini to'g'ri baholash va o'z ixtisosligi bo'yicha yangi bilimlar va ko'nikmalarni mustaqil tarzda ola bilish salohiyati); personal layoqatlilik (doimiy professional jihatdan o'sish va malakasini oshirish, professional faoliyatda o'zini ro'yobga chiqarish layoqati); o'z ijtimoiy-professional sifatlari haqida, shuningdek, ehtimolli professional kamchiliklarni bartaraf etishning metodlarini mos ravishda

egallash to‘g‘risida xolis bilimlarga ega bo‘lish.

O‘qituvchilarda shakllangan baholash kompetentsiyasining qo‘llanilish sohasi ham juda keng bo‘lib, ulardan ijtimoiy tashkilotlar (bolalar uylari, qariyalar uylari, nogironlar bilan shug‘ullanadigan muassasalar, bolalar ijod markazlari, parklar va hokazolar); ta‘lim muassasalari (maktablar, bog‘chalar, OTMlar, litseylar va kollejlar); personalni tanlash va ular bilan ishlash muassasalari (kadrlar agentliklari, bandlik markazlari, kasbga o‘qitish markazlari va muassasalari); tibbiyot muassasalari (kasalxonalar, poliklinikalar, narkologik markazlar, reabilitatsiya muassasalari); huquqni muhofaza qiluvchi organlar (sudlar, bolalar koloniylar, prokuratura, ichki ishlar idoralari va hokazo) alohida ajralib turadi.

## TADQIQOT USULLARI

Endi bevosita o‘qituvchi-pedagoglarda talabalar bilimini baholash kompetensiyalarining asosiy omillarini ko‘rib chiqib, ularni alohida qayd etsak. Tadqiqot-tahliliy ishlar (insonning xulq-atvor xususiyatlarni o‘rganish, olingan axborot bilan ishlash va psixodiagnostik metodikalarni real amaliyot sharoitiga moslashtirish); psixologik maslahatlashuvlar (talabalarga nima ro‘y berayotganini doimiy axborotlar taqdim qilish, ularga turli qiyin vaziyatlarni hal qilishda yordam ko‘rsatish); ommaviy tadbirlar o‘tkazish (turli treninglar va seminarlar o‘tkazish), kadrlar bilan ishlash (kadrlarni tanlash va ular bilan ishlash, kar’erani psixologik amalga oshirish) singari asosiy omillar mavjud [Hutorskoj, 2008]. Uning uchun pedagoglarning quyidagi xususiyatlari, salohiyatini oldindan aniqlash, ular uchun quyidagi omillarni tatbiq qilish talab etiladi:

- pedagogning psixologik namunali o‘qituvchi modelini yaratish;
- o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari va qaysi yo‘nalishga moyilligini aniqlash;
- yuqori darajadagi shaxsiy mas‘uliyatini ta’minlash;
- bag‘rikengligini, insonlarga baho berishda xolislik tamoyillarini belgilash;
- boshqa insonlarga nisbatan hurmatda bo‘lish va ularning manfaatlarini doimiy hisobga olish xususiyatlarini aniqlash;
  - talabalarning muammolari va hissiyotlariga nisbatan empatik munosabati bor yo‘qligini o‘rganish;
    - o‘z-o‘zini anglashga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga, originallikka, topqirlikka, har tomonlama yetuklikka intilishini aniqlash;
    - qiziquvchanlik va tez ilg‘ab olish qobiliyatiga egalik, har qanday vaziyatdan chiqa olish, tarbiyalilik, tashabbuskorligini o‘rganish;
    - maqsadga intiluvchanlik, bir so‘zlilik, intuitsiya, voqeliklarni oldindan ko‘ra bilish, topqirlik;
    - sir saqlay bilish, kreativlik;
    - eruditsiya, ya’ni har tomonlama ma’rifatlilik va hokazolar.

Demak, ushbu omillarni pedagoglar va o‘qituvchilar faoliyatiga keng tatbiq qilish, ularda talabalar bilimlarini baholashning yangi ko‘nikmalari va bilimlarini egallash, rivojlantirish imkonini beradi. Zero, o‘qituvchilarda professional faoliyatni bajarishning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan sifatlar va imkoniyatlar, diqqatini

jamlagan holda, talabalar salohiyatiga baho berish, ayniqsa, butun sayyora bo‘yicha yuz bergen pandemiya sharoitida yangi axborot texnologiyalari yordamida ham ularga zaruriy bilimlarni berish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish o‘ta dolzarb vazifaga aylandi.

O‘qituvchilar faoliyatida dars jarayonida, shuningdek, talabalar tomonidan bajarilgan vazifalarni, olingan bilimlarni mustahkamlash bilan bog‘liq sinovlarda o‘rganilayotgan predmetning bir turidan ikkinchi turiga e’tiborni tezda o‘zgartira olish bilan bog‘liq verbal layoqatni shakllantirish lozimligini ham doimo nazarda tutmoq kerak.

O‘qituvchilarning baholash mahorati darajalarini shakllantiruvchi omillar ichida obrazga kirisha olish va mantiqiy fikrlashni chuqurlashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Obrazga kirishish o‘qituvchi uchun muhim faoliyat turi hisoblanib, biror-bir tilni o‘zlashtirish, ingliz tilini chuqur egallash borasidagi talabalarning ko‘nikmalarini baholash jarayonida mantiqan yondashish va talabaning obraziga «kirgan» holatda yondashish pedagog uchun katta ahamiyatga egaligini e’tirof etmoq zarur.

Talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan har qanday bilimni mustahkamlash, talabalarda gapirish ko‘nikmasini yanada takomillashtirish uchun har doim ham ma’lum bir mashqlar tizimi va ularning qat’iy amal qilishi lozimligi bilan bog‘liq jarayonlar o‘ta muhim. Ayniqsa, mashqlar tizimi gapirish ko‘nikmasini mustahkamlash va takomillashtirish jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi kerakligi, uning printsipial ahamiyati bilan ham doimiy xarakter kasb etadi. Bu esa, yuridik soha talabalari uchun ham juda muhimligi bilan bir qatorda, o‘qituvchilarning baholash ko‘nikmalariga ta’sir ko‘rsatadigan omil ekanligini e’tibordan qochirmaslik lozim.

Aslida, yurisprudensiya va umuman, yuridik sohaning barcha boshqa yo‘nalishlari uchun xorijiy tillarni o‘rgatish bazaviy ta’lim qismiga kiritilgan va u talabalar uchun majburiy hisoblanadi. O‘z navbatida, yuridik yo‘nalish talabalari uchun xorijiy tillarning ikkinchi darajali fan yo‘nalishi ekanligi, uni bo‘lajak mutaxassislar hayotida kam foydalanilishi haqidagi qarashlar butunlay noto‘g‘ri va noxolisligini isbotlab beradi. Ayniqsa, yuqoridaq paragraflarda bir necha bor ta’kidlab o‘tilganidek, bugungi kunda jamiyatda malakali yuristlarga va yuridik xizmatga talab va ehtiyojning ortib borishi sharoitida, dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz qonunchiligidan tortib, kadrlar tayyorlashgacha bo‘lgan tizimlarni jahoning taraqqiy topgan davlatlari darajasiga qadar yuksaltirish va takomillashtirish vazifalari ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Chet tillardagi axborotlar, ma’lumotlar bilan ishslash uchun ham yuristlarda xorijiy tillarni mukammal bilish talab qilinari ekan, avvalo, ularda axborotlar bilan ishslash ko‘nikmalarini ham rivojlantirish masalalarini aslo unutmasligimiz lozim. Axborotlar bilan ishslashda mediamatnlar bilan bajariladigan mashqlar tizimi haqida gaplashish maqsadga muvofiq. Mediamatn bu auditoriyaga axborot berish va ta’sir o‘tkazish funktsiyalarini bajaradigan universal matn hisoblanadi. Zamonaqiy pedagogikada “mediata’lim” deb nomlangan yo‘nalish mustahkam o‘rin olgan bo‘lib, unda ommaviy kommunikatsiya bilan bog‘liq bilimlarni, malakalarni va ko‘nikmalarni

tarqatish hamda o'zlashtirish jarayoni tushuniladi. Bu muhim mashqlar tizimi bo'lib, media bir necha bor ta'kidlab o'tganimizdek, g'oyat samarali yo'nalish hisoblanadi. Media manbalar bilan tanishish va ulardan foydalanish bugungi kunda internet resurs tufayli cheklanmagan [Rodgers, 2001].

Ta'lim olish jarayonida tanlangan ixtisoslik bo'yicha mediamatnni talabalar e'tiboriga havola qilish bilan, pedagog talabalarda, yoki bitiruvchilarda zaruriy fan sohasi bo'yicha harakatchanlikning shakllanishiga hamda ularda u yoki bu masala bo'yicha dolzarb axborotlarni chuqur qidirishlari uchun anglash bilan bog'liq qiziqishlarini ro'yobga chiqarishi mumkin bo'lgan publitsistik xarakterdagi matnlar hisobiga xorijiy tillarni o'rganish uchun ularda motivatsiyaning yuksalishiga ko'maklashadi. Demak, mediamatnlarning o'rni xorijiy tillarni o'rganish bilan bog'liq mashqlar tizimida beqiyos ekanligiga amin bo'ldik. Misol uchun, birgina faktlarning tayyor ko'rinishda namoyish qilinishi talabalar uchun xorijiy tilda o'z dalillash tizimini shakllantira olishi uchun boshlanish nuqtasi bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim tizim yoki yo'nalish sifatida talabalarda biror-bir jarayon yoki voqelikni o'zida aks ettiradigan, professional darajada tasvirlashlari uchun imkoniyat yaratadigan maqolalar yozdirish mashqlari ham asosiyo o'rinni tutadi. Uning asosida dars jarayonidan so'ng talabalarda unga mos o'qish, gapirish va yozish ko'nikmasi shakllanishi uchun mashqlar majmui yaratiladi [ONeill, 2011]. E'tirof etish joizki, qo'rg'anish yurustilar bilishi lozim bo'lgan nozik masalalar, jinoyatchilikka qarshi kurash yoki kriminalistika sohasi bo'yicha ham muhim axborotlarga ega bo'linadi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga chuqur kirib kelishi tufayli lingafon xonalarda multimedia resurslaridan foydalanish va tayyor mualliflik ishlannmalari asosidagi mashqlar tizimiga ulangan holda, ularni yechishlari ham mumkin. Bu tizimning o'ziga xosligi va samaradorligi shundaki, pedagog talabalar tomonidan bajarilgan vazifalarni uyda yoki bo'sh vaqtida baholash uchun kuch sarflamaydi. Dars oxiriga qadar mashqlarni kompyuterning o'zi baholaydi. Ikkinci tomondan esa, talabalar o'zlarini o'zlashtirgan yutuqlari yoki kamchiliklari doimiy kuzatib borishadi. Eng asosiysi, mediamatnlarning keng qo'llanilishi pedagog tomonidan talabalarning dars jarayonidagi faol, individual tajribalari uchun ham qo'l keladi. Bunga pedagog tomonidan esse yoki mavzu haqida mulohazalarning yozilishi, talabalar o'rtasida munozaralar tashkil qilinishi, loyihibor ishlab chiqilishi kabilalar bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, mutaxassisning professional kompetentligini quyidagi asosiyo struktur komponentlarga ajratish mumkin:

- 1) o'qituvchida psixologik nazariy bilimlarning mayjud bo'lishi insonning fiziologik va ruhiy holati haqida asosiyo fanlar borasida professional-mazmun (asos bo'luvchi) komponent bo'lib, uning asosiyo maqsadi sifatida o'z professional faoliyatining mazmunini chuqur anglab yetish sanaladi;

- 2) amaliyotda tajribadan o'tgan va mutaxassis tomonidan birmuncha samarali baholanadigan professional bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladigan professional-faoliyat bilan bog'liq bo'lgan (amaliy) komponent;

3) o‘qituvchini shaxs, individ va faoliyat subyekti pozitsiyasini va yo‘naltirilganligini belgilab beradigan, o‘z ichiga professional va shaxsiy sifatlarni qamrab oladigan professional-shaxsiy komponent.

O‘qituvchilarning baholash mahorati darajalarini shakllantiruvchi omillar ichida professional kompetentlik muhim o‘rin tutadi va aynan ushbu omil o‘qituvchining mahorati va professionallik jihatlarini yanada o‘stirishda foydalanilishi mumkinligini aslo nazardan chetda qoldirmaslik kerak [[https://www.researchgate.net/publication/330029234\\_Professional\\_Competences\\_Of\\_A\\_Foreign\\_Language\\_Teacher\\_In\\_Multimedia\\_Educational\\_Environment](https://www.researchgate.net/publication/330029234_Professional_Competences_Of_A_Foreign_Language_Teacher_In_Multimedia_Educational_Environment)].

Bu borada ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan chuqur izlanishlar olib borilganligi va ular tomonidan quyidagi komponentlar qo‘lga kiritilganligini alohida qayd etishimiz lozim:

- maqsadga yo‘naltirilgan motivatsiya komponenti (yo‘naltirilganlik, motivlar);
- mazmunli komponent (bilim);
- operatsion-faoliyatli komponent (ko‘nikma, malaka, tajriba);
- shaxsiy sifat komponenti (o‘qituvchi yoki pedagogning shaxsiy sifatlari va layoqati);
- refleks komponent (o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini takomillashtirish) [Kuzmina, 1990; 198].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-aprelda 2780-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qo‘shma qaror bilan tasdiqlangan “Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qitishning modul tizimi sharoitlarida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to‘g‘risidagi” Nizom asosida Modullar bo‘yicha talabalar bilimini semestr davomida baholash nazorat jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi [<https://lex.uz/docs/3916793>].

Modul – alohida o‘quv fani (uning qismi) bo‘lib, o‘zida bilimga oid hamda kasbiy jihatlarni qamrab oladi va talabaning fan dasturini o‘rganishi natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadi [Pasvyanskene, 1989].

Universitetda talabalar bilimini, amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari o‘tkaziladi:

– Joriy nazorat talabaning modul mavzulari bo‘yicha bilimi va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli hisoblanadi. Modulning mazmunidan kelib chiqqan holda uning bir semestrda o‘qitiladigan bir-biriga bog‘liq mavzulari kafedra tomonidan uchtadan ko‘p bo‘lmagan bloklarga birlashtiriladi. Har bir blok mavzusi doirasida joriy nazorat seminar, amaliy mashg‘ulot va laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘tkaziladi. Modulning har bir mavzular bloki o‘qitiladigan oxirgi kuni pedagog xodim blokli joriy nazoratni yakunlaydi va ushbu reyting nazorati turi bo‘yicha talabalarning ballari qo‘yiladi [Owens, 1970].

– Oraliq nazorat yarim o‘quv yili davomida modul o‘quv dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. Barcha modullar bo‘yicha oraliq nazorat yozma ish

shaklida, semestr davomida 1 marotaba o'tkaziladi. Bakalavriat talabasining oraliq yozma ishining hajmi: 1-kursda – kamida 1 000 so'zdan; 2-kursda – kamida 1 500 so'zdan; 3-kursda – kamida 2 000 so'zdan; 4-kursda – kamida 2 500 so'zdan iborat bo'lishi shart.

– Yakuniy nazorat muayyan modul bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirilish darajasini baholash usuli hisoblanadi. Yakuniy nazorat semestr yozma imtihon shaklida o'tkaziladi.

Tadqiqot jarayonida talabaning har bir modul bo'yicha o'zlashtirish darajasini talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashning reyting tizimi bo'yicha 100 ballik tizim asosida amalga oshirilishi aniqlandi. Ballar quyidagicha taqsimlanadi: joriy nazorat – 30 ball; oraliq nazorat – 20 ball; yakuniy nazorat – 50 ball.

Talabaning modul bo'yicha to'plagan ballari semestr yakunida nazorat turlari bo'yicha jamlovchi reyting qaydnomasiga kiritiladi. Talabaning semestr (bosqich) bo'yicha umumiy reytingi barcha modullar bo'yicha to'plagan reyting ballarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Talabalarda xorijiy tilda yozuv ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlarning murakkabligi, o'ziga xos texnologiyalari, ko'pqirraliligi bugungi kunda professional yo'naltirilgan xorijiy nutq kompetensiyalarni barcha tarkibiy qismlari (til, nutqiy, sotsiomadaniy, o'quv-anglash) bilan hamohang tarzda ularda yangi malaka va ko'nikma sifatida o'rgatish o'ta muhim omildir [Shubin, 1972]. Yuridik ta'lif olayotgan yoki ixtisoslikka o'qiyotgan talabalarning o'z sohasi bo'yicha xorijiy tilda yozishni o'rganishi, ular tomonidan umumprofessional kompetensiyalarning o'zlashtirilishi kabi maqsadlarga erishilishi yuridik sohada o'qishni bitirayotgan talabalarning asosiy professional ta'lif dasturlari bo'lgan bakalavriat va magistratura bosqichlarida kadrlar tayyorlash borasidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Ma'lumki, yuridik yo'nalishda o'qigan, yuridik ma'lumotga ega yoki bilimli va salohiyatlari yurist kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu borada davlat tomonidan salohiyatlari va kuchli, o'z kasbini puxta egallagan yuristlarni tayyorlash bilan bog'liq vazifalar qatorida, davlat-huquqiy, jinoyat-huquqiy va fuqarolik-huquqiy sohasidagi kadrlarning xorijiy tillarni egallashlari uchun barcha zaruriy sharoitlarni yaratish ishlari jadallik bilan olib borilayotgan sharoitda eksperimental izlanishlarga alohida e'tibor qaratish taqozo etilmoqda.

Har bir profil doirasida talabalar ularga umumprofessional yo'nalishlarni tugatishlari bilanoq o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishslashga imkon beradigan umumadaniy va umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bir qator fanlarni o'rganadilar.

"Yurisprudensiya sohasidagi xorijiy til" bu jarayonlarda talabalarning ichki profilga ixtisoslashuviga yo'naltirilgan o'quv dasturlaridagi bir fan sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, mazkur fanning predmetli mazmuni ta'lifning tanlangan profili ixtisosligiga mos kelishi lozim. Biroq, mamlakatimizdagi turli oliy o'quv yurtlarining bir qator umumprofil dasturlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pgina hollarda «Yurisprudensiya sohasidagi xorijiy til» fani dasturining ta'lif predmetli dasturi turli profillarda tahsil olayotgan talabalar uchun umumiy hamda

ularning bo‘lajak professional faoliyati xususiyatlarini aks ettirmaydi. Bu holat esa, yuridik yo‘nalishda ta’lim oluvchi talabalarining yozuv malakasi, kompetensiyalarini egallashlari uchun muhim ekanligini har bir pedagog, shuningdek, OTM tomonidan chuqur anglab yetilishi dolzarb muammoga aylantiradi.

Xorijiy tilda yozuv professionalligi diskursi ta’limi nutqiy kompetensiyani o‘rganishning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Dastur bitiruvchilari me’yoriy-huquqiy hujjatlarni xorijiy tilda tuza olish, yoza bilish va talqin qilish qobiliyatiga qay darajada ega ekanligi professional muloqot sohasida yuristlarning xorijiy tillarni egallashlari talab etiladigan zamonaviy mehnat bozorida ularga talab hamda muvaffaqiyatlariga har tomonlama bog‘liqidir [Colin, 2014]. Shu bilan birga, ichki profil ixtisosligiga mos ravishdagi yozma yuridik diskursda ta’lim olishning predmet mazmunini tanlab olish masalasi alohida tadqiqotning predmetini aks ettirmaydi.

Ma’lumki, yuristlar o‘z professional faoliyati davomida, asosan, yuridik hujjatlar, turli qonunlar va aktlar, huquqiy va fuqarolik hujjatlari bilan ishlaydilar. Biroq qaysi hujjatni diskurs emas, balki matn deb nomlash huquqiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishini aniqlab olish uchun mazkur tushunchalar ta’rifini ko‘rib chiqish va bilib olish lozim. Bu borada filologlar, pedagog olimlar, tilshunoslar va mutaxassislarining tadqiqotlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Talabalarda aynan yozuv ko‘nikmasining shakllanishi va rivojlanishi ta’limning birlamchi funksiyasi bo‘lgan – o‘rganish jarayonini aks ettiradi. Kommunikativ faoliyat haqida gapirganda, avvalo, muloqotning motivlari va maqsadlari hisobga olingan, tekst tarzida mazmunan tashkil qilingan, tizimlashtirilgan axborotni nazarda tutish lozim bo‘ladi. Tildan doimiy amaliy jihatdan foydalanish talabalarda lingvistika manipulyatsiyaga nisbatan salbiy fikrlarni barataraf etishiga yordam berish bilan bir qatorda, ta’lim jarayonining jozibadorligini oshiradi. Chunki talabalarda maqsadga erishishning shartlari ko‘rina boshlaydi va yozish muloqotning vositasi sifatida o‘zlashtirib boriladi.

Yozuv bir vaqtning o‘zida nutqiy faoliyatning ham mahsuldor shakli sifatida metodologiya rivojlanishining zamonaviy bosqichida xorijiy tillarni o‘rganishning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Yozuvni o‘rganish yoki uni o‘zlashtirish xorijiy tillarni o‘rganishning pirovard maqsadi bo‘lgan kommunikativ kompetensiya shakllanishining asosida yotadi. Yozish jarayoni turli vaziyatlarda bevosita va bilvosita (misol uchun, o‘qilgan matn bo‘icha o‘z fikrini ifoda etish) muloqotning shakllangan salohiyatini o‘zida ifodalaydi.

Talabalar orasida faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ta’lim muhitida yozishning kommunikativ tayyorgarlik singari murakkab mexanizmning ajralmas qismi hisoblanishi ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan. Barcha fan yo‘nalishlarida talaba tomonidan fanni o‘zlashtirish jarayonida turli materiallardan foydalanish samarali uslublardan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu uslublar xorijiy tilni o‘rganish sohasida ham keng qo‘llanib kelinmoqda. Bu jarayon, ya’ni fanni o‘zlashtirish yoki o‘qitish jarayonida turli materiallardan foydalanish nafaqat bilim oluvchi uchun amaliy bilimlarni oshirish, mashg‘ulotlarning turlari va xilmalligi ortishi borasida ahamiyatga ega, balki bilim beruvchi pedagog uchun ham

ta'limning samaradorligi ortishi, talabalarning bilim olishi darajasi yuqori bo'lishi va adabiyotlardan foydalana olish salohiyati ortishi, yozish ko'nikmasi ortishi bilan ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Talabalarda yozuv ko'nikmasini shakllantirish jarayonini pedagog tomonidan nazorat qilinishi muhim vazifalar qatoriga kirishini hisobga olgan holda, shuni alohida qayd etish lozimki, ushbu vazifa yuz berishi ehtimoli bo'lgan xatolar bo'yicha ma'lumot berishni, ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo'lishni, so'zlovchida til amaliyoti natijasida shakllangan etalonning mavjudligini va o'z nutqini shakllangan etalon bilan solishtirishni nazarda tutadi [Kamenskaya, 1990].

Talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan har qanday tilni mustahkamlashda yozuv ko'nikmasini yanada takomillashtirish, ya'ni ma'lum bir mashqlar tizimining qat'iy amal qilishi lozimligi bilan bog'liq jarayonlar muhimdir. Mashqlar tizimi yozuv va yozuv ko'nikmasini mustahkamlash va takomillashtirish jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerakligi, uning printsiplial ahamiyati bilan ham doimiy xarakter kasb etadi. Bu esa, yuridik soha talabalari uchun ham juda muhim. Chunki insoniyat hayotini huquqiy tartibga solish, vujudga keladigan fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va kasbiy muammolarni hal qilish, ularga yechim topish bilan bog'liq bo'lgan soha doimiy takomillashib, murakkablashib borishi sharoitida turli xil yuridik xizmatlar ko'rsatish, mijozlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, adolatli huquqiy jarayonlarni ta'minlash singari omillar muhim o'rinnegallaydi.

Bunda pedagog, birinchi navbatda, guruhning (kim uchun, nimaga va qaysi maqsadda) til bilish darajasini (A1, A2 va xokazo), tinglash uslubini, mazkur materiallarni tahrir qilish zarurligini aniqlab olishi, ma'lum bir faoliyat turiga qaratilgan (yangi grammatik mavzu, leksika, o'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish) mashqlarni tanlash yoki ishlab chiqish, asosiy o'quv materialini hisobga olishi zarur.

Yodda tutish muhimki, mashqlar juda uzoq vaqtini olmasligi (20 daqiqadan ortiq bo'lmasligi), mashg'ulotning leksik mavzusiga bog'liq bo'lishi, ulardan yangi grammatik mavzularni ko'ra olishda foydalanish mumkinligi asosiy tarkibiy qismlar bo'lishini unutmaslik lozim. Talabalar uchun mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun tavsiyalar, amaliyotda ulardan foydalanish yoki ishslash variantlari berilishi kerak.

Mashqlar shartli ravishda uch guruhg'a ajratiladi:

- 1) tinglash yoki ko'rish oldidan mashqlar;
- 2) tinglash va ko'rish vaqtidagi mashqlar;
- 3) tinglash va ko'rishdan keyingi mashqlar.

Har bir guruh uchun ehtimolli vazifalarni ko'rib chiqsak. Tinglash yoki ko'rishdan oldin talabalar izlanishlari, fikrlari ahamiyatini tushuntirishlari uchun yashirin kalit so'zlar, tushuncha va ta'riflar beriladi. Ma'lumki, kalit so'zlar orqali mavzu tez aniqlanadi. So'zlar bilan ishslash bosqichi bu kalit so'zlar yordamida assotsiogramma tuzish yoki ushbu leksika bo'yicha kalit so'zlarni aniqlash hisoblanadi. Bunda talabalar berilgan mavzu bo'yicha so'zlar zaxirasini takrorlaydilar va umumlashtiradilar.

Tinglash vaqtida talabalar matnda foydalanilgan ushbu so'zlardan qo'shimcha jadvallarni to'ldirishlari, mazmunan mos keluvchi ma'lum bir sur'atlarni tanlab

olishlari, ularni ajratishlari va hokazo amallarni bajaradilar. Misol uchun, ma'lum bir jadvallar eshitilgan so'zlar yordamida to'ldiriladi yoki ularning o'rirlari almashtiriladi hamda ularning sifat va fe'l xususiyatlari o'zgartiriladi. Bunday mashqlar tizimi savollar berish va javoblar olish bilan xarakterlanadigan an'anaviy vazifalar tizimini butunlay o'zgartiradi deyish mumkin.

Talabalarda eshitishga qarab yozish va so'ngra uni qayta talaffuz qilish, to'g'ri o'qish bilan bog'liq ko'nikmalar rivojlanib boraveradi.

Yana bir muhim mashqlar tizimi – bu talabalar bilan matndagi omonim, sinonim va antonim so'zлari ustida ishlash tizimidir. Turli jadvallar ishlab chiqiladi va unga yozilgan so'zlarning omonim, sinonim va antonimlarini tezda topish, ular bilan jadvallarni yoki matnlarni to'ldirish, talaffuz qilish, ular orqali ma'lum bir kichik hikoyalarni yozish, voqealarni tasvirlash kabi vazifalarning bajarilishi o'ta samaraliligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, mashqlar tizimi ichida talabalarning mantiqiy fikrlashini kuchaytirish uchun turli yozma mashqlar tizimi ham juda muhim, shaharlar, qishloqlar, tog'lar-u o'rmonlar, boshqa tabiat manzaralari asosida bayonlar.

Talabalar hayotida bo'lib o'tgan yoki umumiylar boshqa tarix mavzularida ham autentik materiallar tayyorlash va ular ustida ishlash masalalariga pedagoglar tomonidan alohida e'tibor qaratilishi muhim.

Yuridik ta'lif yo'nalishi talabalari uchun ham o'z sohalariga daxldor biror mavzuni o'rganish, sodir etilgan jinoyatni ochishni tasvirlash, aybsiz javobgarni sud zalidan ozodlikka chiqarishga erishish, haqiqiy aybdorni aniqlash va jazoga tortish bilan bog'liq voqeliklarni o'zida aks ettirgan turli o'yinlar va mashqlar tizimining ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi. Aynan shunday vazifalar talabalar uchun olingan bilimlarni amaliyatda qo'llay bilish, xalqaro tanlovlarda namoyon qila olishlari uchun asosiy manba bo'ladi.

Endi, bevosita tanlovlardan, bellashuvlardan, bilimlar sinovi singari tizimlar haqida so'z yuritsak. Bugungi kunda bu katta ahamiyatga ega bo'lgan mashqlar tizimi bo'lib, talaba yuristlar uchun katta imkoniyatlarni taqdim qilishi bilan bir qatorda, ularning xalqaro darajaga chiqishi va fikrashi uchun asos bo'luvchi omil sifatida baholanishi mumkin. Olimlar va mutaxassislar tomonidan tanlovlarning uch xili: sud majlis modeli, muzokaralar olib borish modeli, mijozlarga maslahatlar modeli kabilar ishlab chiqilgan [Teply, 2003]. Bugungi kunda talabalar o'rtasida xalqaro miqyosda tobora ommalashgan (Brown-Mosten International Client Consultation Competition, – qisqacha ICCC) [<https://www.brownmosten.com>] huquqiy maslahatlashuv bo'yicha xalqaro tanlov – mijozning yuridik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga ilk murojaatining simulyatsiyasi ishlab chiqilgan. Garchi u o'tgan asrning 60-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda ushbu tanlovda milliy darajada g'olib bo'lgan ko'plab jamoalar xalqaro miqyosda ishtirot etadilar va tanlov tobora ommalashib borayotganini qayd etish joiz.

Alohida mashqlar tizimi hisoblangan texnikalar ham samarali hisoblanadi. Murakkab tomoni shundaki, ishtirot etuvchi talabalar ingliz tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, milliy va xalqaro qonunchilikdan xabardor bo'lishi, kommunikativ jihatdan

salohiyatlari va xalqaro terminlar, iboralarni to‘g‘ri talaffuz qila olishi talab etiladi.

Bundan tashqari, yangi axborot texnologiyalarining yana bir ustun tomoni bu – tarmoqqa ulangan kompyuterlar bo‘lib, ular yordamida sud jarayonlarini jonli kuzatish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat real materiallarni yozib olish, to‘plash va tahsil qilishga imkon bermoqda, balki professional vaziyatlarda (advokat-mijoz, ishbilarmon - mijoz) virtual ishtirok etish imkoniyatini taqdim qilmoqda. Keys-metod yoki vaziyatlari masalalarni yechish metodi ham innovatsion texnologlar qatoridan o‘rin olgan. Ularga modellashtirish, o‘yin metodlari, ma’lum bir funktsiyalarni bajaradigan diskussiyalar ham kiradi [<https://ebn.bmj.com/content/21/1/7>]. Keys metodning pedagogik salohiyati ta’limning an’anaviy metodlariga qaraganda ancha yuqoriligi ko‘plab tajribalarda isbotlangan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tadqiqot doirasida amaldagi nazorat turlarining tashkillashtirilishi va ularni olib borilishiga talabalarning subyektiv munosabatini aniqlash maqsadida so‘rovnomalari o‘tkazildi hamda ularning natijalari asosida tegishli xulosalar shakllantirildi. So‘rovnomanini o‘tkazishdan maqsad, talabalarning yozma ishlarini baholanish tartibiga bo‘lgan munosabati va uning natijadorlikka qo‘sheyotgan hissasini aniqlash bo‘ldi. Ma’lumki, yozuv malakasini baholash ko‘proq subyektiv xarakterga ega bo‘lib, bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning barchasi unga nisbatan obyektiv xarakterni singdirishdan iborat.

So‘rovnoma <https://Docs.Google.Com/> saytida olib borilib, unda umumiy hisobda 1200 nafar talaba ishtirok etdi. So‘rovnoma oltita aniqlovchi savoldan iborat bo‘lib, har bir savol 0-4 gacha bo‘lgan 5 darajali javoblar tanlovidan iborat bo‘ldi. Bunda “0” eng salbiy natijani anglatса, “5” eng ijobiy xolatni belgilashga mo‘ljallandi.

Birinchi savol: “Yozuv malakasini (writing) nazorat qilish testlari siz uchun qanchalik qiyin tuyuladi?” mazmunida bo‘lib, talabalardan tadqiqot obyekti bo‘lgan baholash turining talabalar qiziqish va imkoniyatlariga qanchalik mosligini aniqlashga qaratilgan. Ushbu savoldan kutilgan maqsad, OTMlarda yo‘lga qo‘yilgan nazorat shakllari o‘rganuvchilar imkoniyatlariga qanchalik mosligini va mavjud muammolarni aniqlashdir.

Ikkinchi savol: “Nazorat savollari sizning dars jarayoningizda o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni qay darajada tekshiradi?” mazmunida bo‘lib, ushbu savolda talabalardan testlarning o‘qitish mazmunini qanchalik qamrab olgani yoki buni talabalar qanchalik anglab yetayotganlarini aniqlash maqsad qilib olingan.

Uchinchi savol: “Sizning ta’lim muassasangizda o‘qituvchi tomonidan talabaning nazorat ishida olgan bahosiga izoh berish amaliyoti qay darajada yo‘lga qo‘yilgan?” mazmunitagi savol, olinayotgan testlarning qayta aloqasi, ya’ni natjalarning aynan nazorat jarayonidagi talabalarning o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sir qilish holatini aniqlashga qaratilgan.

To‘rtinchi savol: “Baholashda foydalaniladigan mezonlar bilan qanchalik tanishsiz? Yetarlicha anglab yetganmisiz?” degan mazmundagi to‘rtinchi savol, umuman, baholashda, xususan, OTM tizimida baholash tartibini tashkillashtirish va amalda qo‘llashda ko‘p uchraydigan muammo, talabalarning qanday mezonlar asosida baholanayotganini to‘laqonli anglamaslik yoki umuman xabardor bo‘lmasisligi

kabi muammo darajasini aniqlashni taqozo etishi ko‘zda tutilgan.

Beshinchi savol: “Talabalar o‘zaro bir-birini baholashi yoki bajarilgan vazifaga izoh berishini qanchalik to‘g‘ri deb hisoblaysiz?” mazmunida bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad talabalarning baholash kontsepti va turlarini anglashini, ularning darslarda olib boriladiga nazorat savollarining maqsadini tushunishi hamda bu kabi nazorat turlarining o‘qitish mazmunida qanchalik ilgari surilganligini aniqlashga qaratilgan.


Va nihoyat, yakunlovchi oltinchi savol: “Ta’lim muassasangizda yo‘lga qo‘yilgan nazorat turlarini baholash tartibi sizni qanchalik qoniqtiradi?” mazmunida bo‘lib, uning maqsadi, umuman, talabalar ingliz tili fanidan yozma nutqni baholash shakllari va turlaridan qanchalik mammun ekanliklarini aniqlashga qaratilgan. Bunda, talabalardan qo‘sishimcha kengaytirilgan izohlar berish so‘ralgan bo‘lib, ular uchun alohida, 0-4gacha bo‘lgan darajalashdan tashqari joy qoldirilgan.

So‘rovnomalari 2020-2021 o‘quv yili mobaynida olib borilgan va belgilangan tajriba maydonlarida tahsil oluvchilar ishtirok etishgan. Yakunda qo‘sishimcha fikr-mulohazalar uchun bo‘linma qoldirilgan va u yerda talabalar fikrlarini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

## NATIJA VA MULOHAZALAR

So‘rovnoma natijalari tahliliga o‘tsak, quyidagi ma’lumotlarni taqdim etishimiz mumkin. Birinchi savol – “Yozuv malakasini nazorat qilish testlari siz uchun qanchalik qiyin tuyuladi (writing)?” ga qaratildi. Jumladan, talabalarga beriladigan yozuv malakasini baholashga qaratilgan testlarni faqat 36 nafar talaba (3%) qiyin emas, ya’ni “umuman yo‘q” deb baholagan, shu bilan birga, 72 nafar (6%) respondent deyarli tushunarsiz – “sust”, 360 nafar ishtirokchi (30%) “o‘rta” darajada, 504 nafari (42%) ularni tushunish qiyinligini nisbatan yuqori – “yaxshi” deya ko‘rsatgan. Bundan tashqari, 228 nafar respondent (19%) esa ularni “yetarlicha” qiyin deb e’tirof etgan. Shunga ko‘ra, ayni natijalar aksariyat talabalar uchun beriladigan baholash testlari qiyin ekanligini ko‘rsatdi (1.1-rasmga qarang):

**1.1-rasm.**




Ikkinchisavol – “Nazoratsavollarisizningdarsjarayonlaringizda o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarini qay darajada tekshiradi?”, ya’ni nazorat savollarini dars jarayonida berilayotgan bilim ko‘nikmalarini aks ettirishi va o‘qitish jaryoniga mos ekanligini

aniqlashga qaratildi. Mazkur savolga ham, afsuski, salbiy ko'rsatkichlarni namoyon etuvchi ma'lumotlar aniqlandi. Natijalarga ko'ra, 16 nafar (1%) ishtirokchi "umuman yo'q", 47 nafar (4%) ishtirokchi esa "sust" deya javob berdi. Shuningdek, 599 nafar (50%) respondent "o'rta", 312 nafar (26%) respondent "yaxshi" va 226 nafar (19%) respondent "yetarlicha" javoblarini tanlagan holda nazorat savollarini darsdagi savollarga mosligini belgilab o'tishgan. Ushbu natija subyektiv munosabatni aks ettirishiga qaramasdan, uning natijalari baholashni tashkillashtirishdagi muammolarga ishora qilishi shubhasizdir (1.2-rasmga qarang):

**1.2-rasm.**


Keyingi, uchinchi savol – “Sizning ta'lif muassasangizda o'qituvchi tomonidan talabaning nazorat ishida olgan bahosiga izoh berish amaliyoti qay darajada yo'lga qo'yilgan?” tahliliga ko'ra, talabalarga berilayotgan bahoning, nazorat shakliga mosligi, ya'ni talabaning bilim ko'nikmasi to'g'ri yo'nalishda yoki maqsadlarga muvofiq ravishda rivojlanayotganini aniqlash va shu orqali o'zlashtirish samarasiga ta'sir ko'rsatish shaklining qanchalik yo'lga qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ldi. Unga ko'ra, respondentlarning 41 nafari (3%) "umuman yo'q", 59 nafari (5%) "sust", 564 nafari (47%) "o'rta" deb, o'z fikrlarini bildirishgan. Shu jumladan, 243 nafar (21%) respondent "yaxshi", ularning faqat 293 nafari (24%) "yetarlicha" javoblarini tanlashgan (1.3-rasmga qarang):

**1.3-rasm.**


Bu ko'rsatkich baholash jarayonida baholovchi tomonidan qayta aloqa yetarlicha yo'lga qo'yilmaganini namoyish etib, yuqorida ta'kidlab o'tilgan "nazorat ishi" tamoyillariga zid hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning yozuv ko'nikmasini baholashda eng yuksak maqsad, xususan, baholanuvchining o'zlashtirgan ko'nikmalarining takomillashuviga xizmat qilish omili sust ekanligi ko'rinish turibdi.

Baholashda foydalaniladigan mezonlar bilan qanchalik tanishsiz, yetarlicha anglab yetganmisiz, degan mazmundagi galdagi to'rtinchi savol – "*Baholashda foydalaniladigan mezonlar bilan qanchalik tanishsiz? Yetarlicha anglab yetganmisiz?*" ga berilgan javoblarning tahlili quyidagi ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi: talabalarning 32 nafari (3%) "umuman yo'q", 86 nafari (6%) "sust" darajada deya o'z javoblarini belgilan bo'lsa, 408 ta (34%) javob "o'rta", 332 tasi (28%) "yaxshi" varianti uchun berilgan. Bu esa talabalarning baholashda foydalaniladigan mezonlar bilan yetarlicha tanish emasligi va yetarlicha anglab yetmasliklari belgilangan. Aksincha, yetarlicha tanish va anglab yetgan respondentlar soni 342 (29%) ni tashkil qilib (1.4-rasmga qarang), bu umumiyligi miqdorning atigi chorak qisminigina hosil qiladi. Natijada, talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga, ta'lim sifatini oshirishga, mohiyatni tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli bor.

#### **1.4-rasm.**




Statistik tahlilning "*Talabalar o'zaro bir-birini baholashi yoki bajarilgan vazifaga izoh berishini qanchalik to'g'ri deb hisoblaysiz?*" mazmunidagi beshinchilik savolga respondentlarning 64 nafari (5%) "umuman yo'q", 58 nafari (5%) "sust" hamda 290 nafari (24%) "o'rta" variantlarini tanlashgan. O'z navbatida, 493 nafar (41%) ishtirokchi "yaxshi" deb, qoniqarli javob bergen bo'lsalar, o'zaro baholashning ahamiyatli ekanligi 295 nafar (25%) so'rovnomalarini ishtirokchilari tomonidan "yetarlicha" javobini belgilagan holda qayd etilgan (1.5-rasmga qarang):

**1.5-rasm.**

Ushbu talabalarga har doim o‘qituvchilar fikriga tayanmasdan, o‘zlarining va boshqa talabalarning yutuqlarini mustaqil ravishda baholashga imkon beradi. Bundan tashqari, o‘zaro fikr-mulohaza bildirish bo‘yicha ko‘nikmalarни rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek ularning o‘z-o‘zini baholash va o‘z ishlarini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Va nihoyat, so‘rovnomaning so‘nggi savoli – “*Ta’lim muassasangizda yo‘lga qo‘yilgan nazorat turlarini baholash tartibi sizni qanchalik qoniqtiradi?*” ga respondentlar o‘z ta’lim muassasalaridagi nazorat turlarini baholash tartibi qoniqtirmasligi yuzasidan fikr bildirgan. Natijalarga ko‘ra, so‘rovnoma ishtirokchilarining 29 nafari (2%) “umuman yo‘q”, 56 nafari (5%) “sust” va 290 nafari (24%) “o‘rta” javoblarini belgilashgan. Bundan tashqari, 545 nafar (45%) respondent “yaxshi” va atigi 280 nafar (23%) respondent “yetarlicha” qoniqtirishini belgilashgan (1.6-rasmga qarang):

**1.6-rasm.**

Shuningdek, 45% so‘rovnoma ishtirokchilari baholash tartibini “yaxshi” deb belgilashgan va quyidagicha izohlangan:

о “О‘qish davomida о‘tiladigan dars jarayoni bilan nazorat yoki yakuniy imtihondagi savollar bir-biridan farq qiladi, shuning uchun baholash mezoni past bo‘ladi.

о Mashg‘ulot mobaynida о‘zlashtirilgan bilim imtihonda yaxshi natija olish uchun yetarli emas!!! Ya‘ni imtihon savollari dars mobaynida yetkazib berilgan ma‘lumotga nisbatan ancha murakkab.

о Nazorat ishlarini yozma va og‘zaki tartibda 50% + 50% qilib baholash o‘rinli bo‘lar edi. Notiqlik va yozma savod teng bo‘lishi lozim”.

## XULOSA

Shunday qilib, talabalarning ingliz tili bo‘yicha yozuv ko‘nikmasini baholash, nazorat savollarining sifati, ularning о‘tilgan mavzuga mos yoki mos emasligi, ingliz tilini о‘zlashtirishga bo‘lgan munosabati va belgilangan vazifalarni qay darajada о‘zlashtirganliklari, mustaqil amalga oshirishlari borasidagi fikrlari о‘rganildi. Talabalarning baholash jarayonidan qanchalik darajada qoniqish hosil qilishi mustaqil tarzda vazifalarning bajarilishini kuzatish orqali amalga oshirildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yurisprudensiya yo‘nalishi talabalarining kam foizi nazorat savollarini darsdagi savollarga mosligini belgilaganlar. Ushbu natija subyektiv munosabatni aks ettirishiga qaramasdan, uning natijalari baholashni tashkillashtirishdagi muammolarni yuzaga keltirib chiqaradi: mashg‘ulot mobaynida о‘zlashtirilgan bilim oralig‘ va yakuniy nazorat paytida yaxshi natija olish uchun yetarli emas.

2. Talabalarga ingliz tilini о‘zlashtirishda eng ko‘p to‘sqinlik qiladigan omillar – bilim va ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmagani, baholashning aniq mezonlarga asoslanmagani va mustaqil izlanishga moyillik yetishmasligi deb hisoblashlaridir.

Shuningdek, tadqiqot yuzasidan talabalar o‘rtasida olib borilgan so‘rovnoma bilan birga, tajriba sinov-maydonlarining xorijiy tillar kafedralarida ham shunday jarayon amalga oshirildi. Anketa so‘rovnoma larni to‘ldirishda umumiyligi hisobda tajriba sinov maydonlari kafedralarining 20 nafar professor-o‘qituvchilari ishtirot etdi. So‘rovnoma 6 ta aniqlovchi savollardan iborat bo‘lib, har bir savolga obyektiv javob berish so‘ralgan. Ular quyidagilar:

- Sizning muassasangizda talabalarni baholash muntazamligi qanday belgilangan?

- Tuzilgan test, nazorat ishi va hokazolar nimani baholashni ko‘zda tutadi?

- O‘qish jarayonidagi samaradorlikni qanday nazorat qilasiz?

- Talabalarning yozuv ko‘nikmasini baholashda qanday test (nazorat turlari) lardan foydalanasiz?

- Yozuv malakasini baholashda qanday mezonlardan foydalanasiz?(Aniqlik kirititing!)

- Talabalarning yozuv malakasini baholashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni sanab o‘ting.

Misol tariqasida dastlabki ikkita savol misolida ko‘zlangan maqsad haqida

tushuncha berib o'tamiz:

 Birinchi savol: "Sizning muassasangizda talabalarni baholash muntazamligi qanday belgilangan?" mazmunda bo'lib, professor-o'qituvchilardan tadqiqot obyekti bo'lgan baholash muntazamligini talab darajasiga qanchalik mosligini aniqlashga qaratilgan. Ushbu savoldan kutilgan maqsad OTMlarda o'tiladigan fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirganligining baholash muntazamligini aniqlash.

 Ikkinci savol: "Tuzilgan test, nazorat ishi va hokazolar nimani baholashni ko'zda tutadi?". Talabaning berilgan materialni o'zlashtirishi, qanday usullardan foydalangani, qanday tahlil qilishi, qanday xulosaga kelganligi baholanadimi yoki til ko'nikmalari, grammatika va leksik aspektlardagi progresslarni aniqlashtirish inobatga olinadimi?

"Talabalarning yozuv ko'nikmasini baholashda qanday test (nazorat turlari) lardan foydalanasiz?" mazmunidagi uchinchi savolga professor-o'qituvchilar tomonidan quyidagi javoblar keltirilgan:

- insho turlarini aniqlash;
- inshoning qismlarini nomlanishi bo'yicha ajratish;
- inshoda ishlataladigan bog'lovchilarni to'g'ri qo'llash;
- insho qismlarini mantiqiy jihatdan to'g'ri tartibda joylashtirish;
- o'zaro insholarni tekshirish;
- o'z inshosini baholash mezoniga va ifodasiga binoan tekshirish;
- esse, reflektiv sharhlar, turli kategoriylar bo'yicha yozma ishlar tahlili.

O'qituvchilar o'rtasida olib borilgan so'rovnomalarni o'tkazishdan maqsad tajriba-sinov maydonida baholashning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, samaradorlik ko'rsatkichlari va nazorat turlarining ball taqsimotini o'rganishdan iborat edi. Natijalarga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

An'anaviy uslubga ko'ra test va nazorat ishlari, asosan, talabaning berilgan materialni qanchalik o'zlashtirganini baholash uchun xizmat qilgan. Kredit-modul tizimida esa, talabaning faqat berilgan materialni o'zlashtirishigina emas, balki bu jarayonda qanday usullardan foydalangani, materiallarni qanday tahlil qila olgani va ushbu omillar asosida xulosa qilingan fikrlarning samaradorlik darajasi baholanadi.

Mashg'ulotlarda muntazam ravishda ishtirot etish samaradorlik ko'rsatkichining ijobiy natijasiga turtki bo'ladi. Tizimlilik, sabot, motivatsiya va ishtiyoyq kutilgan natijani beradi. Bundan tashqari, talabalaring o'zlashtirish ko'rsatkichlarini qayd qilib borib, ma'lum paytdan so'ng ularning o'sish yoki pasayishini kuzatish imkonи bo'ladi hamda shu asosda qo'shimcha ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv malakasini rivojlantirishga ishtiyoqning pastligi, tashkiliy masalalardagi sustlik, fikr-mulohazalarning yo'qligi yoki talabaning o'ziga mansub emasligi, fikrni rivojlantirishda mantiqning yo'qligi va asossiz fikrlarning berilishi kabi salbiy omillar mavjud.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Galskova, N.D. (2000). Sovremennaya metodika obucheniya inostrannim yazikam.

- Moskva: ARKTI-Glossa.
2. Giraldo, F. (2014). The impact of the professional development program on the performance of English teachers in the classroom. *Profile Issues of Professional Development of Teachers*, 16(1), 63-76.
  3. Hutorskoy, A.V. (2008). *Pedagogicheskaja innovatika*. Moskva: Akademiya.
  4. Kamenskaya, O.L. (1990). *Tekst i kommunikatsiya*. Moskva.
  5. Coombe, Ch. (2013). *A practical guide to evaluating English language learners*. Michigan: University of Michigan Press.
  6. Kuzmina, N.V. (1990). *Professionalism of the personality of the teacher and the skill of industrial training*. Moskva.
  7. Leontiev, A.A. (1991). *Obshaya metodika obucheniya inostrannim yazikam*. Moskva.
  8. Manlove, D., & David, B. (1985). *Flexible planning*. New York: Longmans Green and Company.
  9. Matkarimova, A.I., & Toshtemirov, E.N. (2017). Assessment in teaching a foreign language. *Molodoy uchyoniy*, 5(139), 432-434.
  10. O'Neill, B. (2011, April 11). *Media education and the development of media competence*. Presentation at Cities for Children Seminar. Dublin: Dublin City Council.
  11. Owens, G. (1970). Module at universities quarterly. *Higher Education and Society*, 25(1), 20-27.
  12. Pasvyanskene, V.Y. (1989). Modulnoye obucheniye inostrannim yazikam v neyazikavom vuze. *Avtoref. diss. kand. ped. nauk*. Vilnius.
  13. Rodgers, T.S. (2001). Approaches and methods in language. In *Teaching Cambridge Language Teaching Library*. Washington, DC: Cambridge University Press.
  14. Semenova, Y.I. (2017). Assessment techniques in the course “Theory of language acquisition”. *Aktualniyi problemi sovremennoego inoyazichnogo obrazovaniya*, 5. Kursk.
  15. Teply, L. (2003). *Law school competitions in a nutshell*. US: West Academic Publishing.
  16. Vasilyeva, M.M., & Sinyavskaya, E.V. (1967). *Metodika prepodavaniya inostrannix yazikov za rubejom*. Moskva: Progress.
  17. Yutsevichene, P.A. (1989). *Teoriya i praktika modulnogo obucheniya*. Kaunas: Shviesa.
  18. Shubin, E.P. (1972). *Yazikovaya kommunikatsiya i obucheniye inostrannim yazikam*. Moskva: Prosveshenie.
  19. <https://ebn.bmjjournals.com/content/21/1/7>.
  20. <https://lex.uz/docs/3916793>.
  21. [https://mx3.urait.ru/uploads/pdf\\_review/4A14138A-AF4D-4E4C-B905-4CF1744FD42D.pdf](https://mx3.urait.ru/uploads/pdf_review/4A14138A-AF4D-4E4C-B905-4CF1744FD42D.pdf)
  22. <https://www.prodigygame.com/main-en/blog/teacher-evaluation/>.
  23. [https://www.researchgate.net/publication/267327816\\_Effective\\_Writing\\_for\\_Lawyers](https://www.researchgate.net/publication/267327816_Effective_Writing_for_Lawyers).
  24. [https://www.researchgate.net/publication/330029234\\_Professional\\_Competences\\_Of\\_A\\_Foreign\\_Language\\_Teacher\\_In\\_Multimedia\\_Educational\\_Environment](https://www.researchgate.net/publication/330029234_Professional_Competences_Of_A_Foreign_Language_Teacher_In_Multimedia_Educational_Environment).
  25. <https://www.brownmosten.com>.

## REFERENCES

1. Coombe, Ch. (2013). *A practical guide to evaluating English language learners*. Michigan: University of Michigan Press.
2. Galskova, N.D. (2000). *Modern methods of teaching foreign languages*. Moscow: ARKTI-Gloss.
3. Giraldo, F. (2014). The impact of the professional development program on the performance of English teachers in the classroom. *Profile Issues of Professional Development of Teachers*, 16(1), 63-76.
4. Khutorskoy, A.V. (2008). *Pedagogical innovation*. Moscow: Academy.
5. Kuzmina, N.V. (1990). *Professionalism of the personality of the teacher and the skill of industrial training*. Moskva.

6. Kamenskaya, O.L. (1990). *Text and communication*. Moscow.
7. Leontiev, A.A. (1991). *General methodology for teaching foreign languages*. Moscow.
8. Manlove, D., & David, B. (1985). *Flexible planning*. New York: Longmans Green and Company.
9. Matkarimova, A.I., & Toshtemirov, E.N. (2017). Assessment in teaching a foreign language. *Young Scientist*, 5(139), 432-434.
10. O'Neill, B. (2011, April 11). *Media education and the development of media competence*. Presentation at Cities for Children Seminar. Dublin: Dublin City Council.
11. Owens, G. (1970). Module at universities quarterly. *Higher Education and Society*, 25(1), 20-27.
12. Pasvyanskene, V.I. (1989). Modular teaching of foreign languages in a non-linguistic university. *Diss. abs. cand. ped. scien*. Vilnius.
13. Rodgers, T.S. (2001). Approaches and methods in language. In *Teaching Cambridge Language Teaching Library*. Washington, DC: Cambridge University Press.
14. Semenova, Y.I. (2017). Assessment techniques in the course “Theory of language acquisition”. *Aktualnyi problemi sovremennoi inoyazichnogo obrazovaniya*, 5. Kursk.
15. Shubin, E.P. (1972). *Language communication and teaching foreign languages*. Moscow: Enlightenment.
16. Teply, L. (2003). *Law school competitions in a nutshell*. US: West Academic Publishing.
17. Vasilyeva, M.M., & Sinyavskaya, E.V. (1967). *Methods of teaching foreign languages abroad*. Moscow: Progress.
18. Yutsevichene, P.A. (1989). *Theory and practice of modular education*. Kaunas: Shviesa.
19. <https://ebn.bmj.com/content/21/1/7>.
20. <https://lex.uz/docs/3916793>.
21. [https://mx3.urait.ru/uploads/pdf\\_review/4A14138A-AF4D-4E4C-B905-4CF1744FD42D.pdf](https://mx3.urait.ru/uploads/pdf_review/4A14138A-AF4D-4E4C-B905-4CF1744FD42D.pdf)
22. <https://www.prodigygame.com/main-en/blog/teacher-evaluation/>.
23. [https://www.researchgate.net/publication/267327816\\_Effective\\_Writing\\_for\\_Lawyers](https://www.researchgate.net/publication/267327816_Effective_Writing_for_Lawyers).
24. [https://www.researchgate.net/publication/330029234\\_Professional\\_Competences\\_Of\\_A\\_Foreign\\_Language\\_Teacher\\_In\\_Multimedia\\_Educational\\_Environment](https://www.researchgate.net/publication/330029234_Professional_Competences_Of_A_Foreign_Language_Teacher_In_Multimedia_Educational_Environment).
25. <https://www.brownmosten.com>.